

## MILLIY O'ZIGA HOSLIK, MILLIY G'URUR TUSHUNCHALARINING YOSHLAR FALSAFTY ONGIDA NAMOYON BO'LISHI.

L.Tashayev

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarkand davlat arxitektura – qurilish universiteti tyutori*

*Yurtimizda yuz berayotgan yirik ijtimoiy rivojlanishni yanada jadallashtirmoq, yoshlarning bunday o'zgarishlarga ishtiroklarini oshirish uchun eng avvalo ularning milliy ongida tub burilish qilmoq kerak. Chunki milliy ong qancha tezlik bilan o'ssa inson o'zligini ko'proq anglaydi, oilada, jamoada, jamiyatda tutgan mavqeyini yanada aniqroq tassavur qiladi. Bir so'z bilan aytganda o'zining qadriyatlarini tushinadi, ya'ni milliy g'urur uyg'onadi.*

*Milliy o'ziga hoslik aynan biron bir jamiyatga va millatga hos bo'lgan etnik kelib chiqish madaniyat din va o'ziga hos milliy urf-odatlar hamda an'analarga asoslangan mansublik hissidir. Milliy o'ziga hoslik har bir jamoaning har bir jamiyatning xalqning o'ziga hoslik jixatlaridir. Shu nuqtaiy nazaridan bugungi kunda yoshlar ongida milliylik hususiyatlarini singdirish ularga boy madaniy va milliy urf-odatlarni chuqurroq o'rgatishimiz lozimligini anglatmoqda. "Milliy g'urur inson ongi va faoliyatining biri ikkinchisi bilan bog'liqligini, ushbu o'zaro ta'sir, o'zaro aloqadorlik mexanizmining xarakterini ifodalaydi. Boshqacha aytganimizda milliy g'urur nafaqat inson milliy ongi rivojlanishi darajasining, uning amaliy faoliyatining asosiy ko'rsatkichidir"<sup>31</sup> Milliy g'urur – inson, guruhlarining milliy o'zligini anglab etish asnosida rivojlanadigan*

ajdodlaridan yetib kelayotgan moddiy va ma'naviy merosdan, o'z aholisining dunyo taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, boshqa xalqlar oldidagi qadri, xurmat e'tiboridan g'ururlanish hissini ifoda etuvchi tushunchadir. Bu tuyg'uni his qilish uchun yoshlar tariximizni milliy an'alarimizni yaxshi o'rgangan bo'lishi lozim deb o'ylayman. Milliy g'urur quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi: xalqningning g'alabalari, erishgan mavqeyi bilan g'ururlanishi, uning xar qanday yuzaga kelgan ijtimoiy muammolariga jim kuzatib turmaslik; o'z aholisiga, e'tiborli bo'lish; o'z xalqining asrlar mobaynida paydo bo'lgan va sayqallangan boy moddiy va ma'naviy merosini ko'z qarachig'idek saqlash; xalq urflari, odatlari, qadriyatlariga nisbatan e'tiborsiz munosabatda bo'lmaslik, ularni ko'paytirish va rivojlantirish; o'z xalqiga hurmat e'tiborini yaxshi va ijobjiy ishlari bilan ko'rsata bilishdir.

<sup>31</sup>Qurbanov T "Yoshlarda milliy g'ururning shakllanishida madaniy merosning roli" falsafa fanlari nomzodligini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent 2005-yil 15 bet

Yaxshi milliy g'urur boshqa xalqga nisbatan mansub insonlarni hurmat qilishini taqozo qiladi. Bunday hissiyotga ega ma'naviy yetuk yoshlari vatanni qadrlaydi hamda o'z xalqining taqdiriga va kelajagiga daxldor bo'ladi. Yurtimizning ozodligi yoshlari milliy mansubligini oshirib, uni xalq, yurt, otabobolar o'tmishi oldidagi mas'uliyatini sezishdek jarayon bilan boyitmoqda. Bunday holatda yoshlarda Yurtimiz ozodligidan g'ururlanish, mamlakatimizda erkin va farovon hayot barpo qilish yo'lida jadal mehnat qilishi, dunyo xalqlarining erishgan muvofaqqiyatlaridan o'rinni hamda maqsadli foydalanish milliy g'ururni oshiradigan omillardir. Bu holat esa, yoshlarimizning kuchi, intilishi, iqtidorliligini ko'rsatib beradi.

Ularning ma'naviy dunyoqarashida sog'lom milliy g'urur hissini tarkib topishi uchun zamin yaratadi deb o'ylayman. "Globallashuv sharoitida yoshlari hayotida lokol madaniyatlarning vujudga kelish sabablari va bunga ularning munosabati, migratsion jarayonlarning ishtirokchisi sifatida yoshlari faoliyatini baholash, muammo va istiqbollarini o'rganish, turli yovuz illatlarning yoshlari hayotiga kirib kelishidagi turli usul va vositalarini aniqlash va ularni oldini olishga oid o'ziga hos konsepsiya ishlab chiqish maqsadga muvofiq<sup>32</sup>. Har bir o'ziga hos madaniyat ma'lum bir jixatlari orqali boshqa madaniyatlardan farq qilib turadi va o'ziga moslik hislatlari sababli har-xil jarayonlardan ko'rinish turadi. Har bir bir o'ziga hos madaniyat o'ziga hos jixat orqali rivojlanadi va ma'lum bir mantiqga asosan o'zga madaniyatlarni qabul qilishi mumkin. Bugungi kunda yoshlarda kechayotgan axloqiy madaniyat va jarayonlarni ma'lum bir yakdil qiyofaga keltirish hamda o'zga madaniyatlar zararli ta'sirlaridan himoya qilish eng asosiy vazifalarimizdan biridir. Bu jarayonni ma'lum bir qolibga solish uchun yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish yaxshi samara beradi. "Milliy g'ururning eng muxim ko'rsatgichlaridan biri milliy o'zligini anglashdir. Milliy o'zlik milliylikka mansub barcha hususiyat va belgilarni o'zida mujassamlashtiradi. Har bir shaxsning milliy o'zligini anglashga intilishi tabiiy jarayondir". O'zi mansub bo'lgan millat, elatga hos milliy hususiyatlar, belgilarni saqlab qolish, uni yanada rivojlantirish yoki qayta tiklash borasidagi say harakatlarning ifodasidir. Huddi shuning uchun ham "milliy o'zligini anglash" "millat" tushunchasi bilan bog'liqdir"<sup>33</sup>.

Shu nuqtai nazaridan yoshlarga ta'lim o'rgatish jarayonida ilg'or va amaliyotda sinalgan hamda muvofaqqiyatga erishgan xorijiy tajribalarni o'rganish dolzarb muxim vazifalarimizdandir. Yoshlar faoliyati jamiyatni taraqqiy ettirish va ijtimoiy rivojlanishning muhim elementi sifatida xar hil

<sup>32</sup> Xaqnazarov X. "O'zbekiston yoshlaringin kundalik turmush tarzi" tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent 2019-yil 23-bet

<sup>33</sup> Qurbanov T "Yoshlarda milliy g'ururning shakllanishida madaniy merosning roli" falsafa fanlari nomzodligini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent 2005-yil 16 bet

mexanizm, uslub va strategiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Bugungi vaqtning eng muxim vazifalaridan asosiysi dunyoviy davlat kriteriyalariga mos keladigan yoshlarni tarbiyalash, uzlusiz ta'lim-tarbiya mexanizmini milliy mansublik jarayonlariga va an'analarimiz asosida yaratilishidir.

Yurtimiz ta'lim dargohlarida so'ngi vaqtarda yoshlarning ma'naviy holatiga katta e'tibor berib borilmoqda. Ma'lumki, tarbiya-insoniyatning ma'naviy dunyoqarashini boyitadigan ertangi kunining qiyofasini belgilab beradigan eng muxim omillardan biridir. Ta'lim esa tarbiyali, ijobiy hislatga ega bo'lgan insonga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Komil inson shaxsini tarkib toptirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim va tarbiya azaldan yurtimizda bir birini to'ldirib keladi. Buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning bog'liqligi yuzasidan quyidagicha yozadi: "Dars (ya'ni ta'lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi-tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir"<sup>34</sup>.

Umuman aytganda, yoshlarda axloqiy tarbiyani kuchaytirishimizda ota-onalar va keng jamoatchilikning ro'lini kuchaytirish lozimdir. Ayrim yoshlarda oxirgi yillarda axloqiy tarbiya va mansublik jarayonlari anchagina salbiy tarafga o'zgarganligini keng jamoatchilik va soha mutaxasislari hamda yoshlar bilan ishlaydigan hodimlar bot-bot ta'kidlayotganligi tashvishli holatlardan biri desam hato bo'lmaydi. Bu xususda G'azzoliy shunday yozadi. "Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - yerdan ungan ne'matning yaxshi hosil bermog'i uchun dehqon uning atrofini begona o'tlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol"<sup>35</sup>. Shundan ham bilsa bo'ldiki yoshlar tarbiyasiga ahamiyat berishning nechog'lik muximligini. "Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirlayotgan islohotlarga dahldorlik hissini kuchaytirish, shu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini yanada oshirishimiz zarurli davr talabiga aylanib bormoqda"<sup>36</sup>. Yosh avlodda milliy g'ururni tarkib toptirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayotganligi yana bir isbotini topmoqda. Jamiyatimizdagi milliy mafkurasi etuk ma'naviyatli, milliy jipslashish hissi jarayonida tarkib topgan xalqparvarlikni ham o'z ichiga olar ekan, ona-Zamin o'tmishini, uning asriy rivojlanish yo'li, dunyoga taniqli shaharu obidalari, ma'naviyat na'munalari va

<sup>34</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud ahloq. Toshkent, «O'zbekiston», 1992 yil, 15-16-b.

<sup>35</sup> Abu Xamid Muhammad al-G'azzoliy. Oxiratnama. Buxoro, 1992 yil 18-bet. 5. Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq». T., 1999 yil, 12-b.

<sup>36</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2021.-280-b.

tarixiy qadamjolardan habari bo'lmagan, ular bilan haqli ravishda g'ururlanmaydigan insonni haqiqiy xalqparvar deb xisoblab bo'lmaydi.

Biz barpo qilayotgan adolatli va ozod jamiyat, huquqiy demokratik davlat har bir yosh avlodning orzu-istiklariga hamohang bo'lib, uning kelajagini qonunan kafolatlaydi. Shuning uchun bugungi dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar yoshlarga ta'llim va tarbiya beradigan muxtaram ustoz murabbiylar va shu sohada ishlaydigan xodimlardan juda katta mas'uliyat talab qilmoqda. Shuning uchun bugungi kun Pedagoglarning o'zlariga zamonaviy va milliy ilm o'rgatish, ularning saviyasini ko'tarish kabi kechiktirish mumkin bo'lmagan dolzarb vazifaga duch kelmoqdamiz. Yoshlar ongida ma'naviyatni boyitish va rivojlantirishda milliy til va milliy madaniyat, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'u, milliy g'ururni shakllantirish asosiy o'rinda turadi. Yoshlarda milliy g'ururning bir jihat yurtga, xalqga, elu ulusga vafo bilan xizmat qilishdir. Yurtni e'zozlash, xalqning tarixi va taqdiriga befarq munosabatda bo'ladigan yoshlarning kelajagi mavhumdir. Hech bir yosh avlod milliy ma'naviy dunyoqarashni yangitdan yaratmaydi, balki o'z ota-bobolari yaratgan ma'naviy boyliklarni meros qilib oladi. Qaysi hududda ma'naviy-madaniy, axloqiy o'sish yuqori bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha joyda jamoaning ijtimoiy adolat normalari tez taraqqiy etganligi tarixdan ma'lum. Ajdodlar qoldirgan merosimizni o'rganishning juda ko'p sabablari mavjud.

Bu to'g'risida jadidchilik ma'rifatparvarlik namoyondalaridan Abdulla Avloniyning "Ilm, axloq va harakat – yoshlar uchun ziynatdir"<sup>37</sup> degan fikri hamda Abdurauf Fitratning oiladagi ma'naviy – axloqiy muxitni sog'lomlashtirishga doir muloxazalari misol bo'la oladi<sup>38</sup> Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiya qilish ularda ona-vataniga mexr-muxabbat tuyg'ularini, uni har tomonlama asrash ishlariga intilishlarini tezlashishiga yordam beradi.

Boy milliy ma'naviy merosimizni yoshlar o'rganishi uchun, oltinga teng durdonalarini xalqga tadbirlar, uchrashuvlar orqali ular ongida ma'lum bilimlarni singdirishimiz maqsadga muvofiqdir. Yoshlar ongi va shurida milliy-ma'naviy komillikni tarkib toptirishda buyuk olimlarimiz Abu Nasr Forobi, Jaloliddin Manguberdi, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, kabi bobolarimizning ijodlaridagi ta'llim tarbiyaga oid o'gitlari pand-nasixatlari bugungi kunda ham pedagoglarimiz oldida dolzarbligini yo'qtGANI yo'q.

Barcha jixatdan o'zligini his qilgan odamgina yurti oldida turgan asosiy orzu-istiklari nimadan iboratligini anglab, yurt oldidagi mas'uliyatini chuqr

<sup>37</sup> Avloniy A.Turkiy guliston yohud axloq. – T.: Xalq merosi , 1993. -32 b.

<sup>38</sup> Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. –T.: Ma'naviyat, 1998.-112 b .

anglab etadi. Yoshlarni milliy qadriyatlar asnosida voyaga etkazish ularning ijtimoiy harakatini oshirishga olib kelib, ma'naviy etuklikka erishuvida eng asosiy ro'lni o'ynaydi.